



DIRECTIONS FOR DIGITALIZATION AND IMPROVING EXPORT COMPETITIVENESS IN THE TEXTILE INDUSTRY OF UZBEKISTAN

Ruziyeva Dilobar Isomjonovna

Professor, Tashkent State University of Economics

Rizayeva Sevinchoy Bahodir kizi

Master's student, Tashkent State University of Economics

Article history:	Abstract:
Received: 10 th March 2026 Accepted: 8 th April 2026	This article provides a scientific and practical analysis of the essence and key directions of digitalization processes in Uzbekistan's textile industry, as well as their role in enhancing the sector's export competitiveness. The study examines the impact of the "Textile 4.0" concept, automated production lines, ERP and SCM management systems, IoT and Big Data technologies, e-commerce platforms, international certification requirements, and national brand policy on the development of the textile industry. In addition, the article explores international experience in the digital transformation of the textile sector and the expansion of export potential, substantiating the possibilities of applying this experience in the context of Uzbekistan. The article also analyzes existing reserves in production automation, increasing R&D expenditures, strengthening brand recognition, and diversifying export markets, and develops practical recommendations aimed at improving the competitiveness of the textile industry.

Keywords: Textile industry, digitalization, Textile 4.0, export competitiveness, automation, ERP, SCM, IoT, Big Data, international certification, national brand, e-commerce

O'ZBEKISTON TEKSTIL SANOATIDA RAQAMLASHTIRISH VA EKSPORT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

Ruziyeva Dilobar Isomjonovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

Rizayeva Sevinchoy Bahodir qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston tekstil sanoatida raqamlashtirish jarayonlarining mazmuni, asosiy yo'nalishlari hamda eksport raqobatbardoshligini oshirishdagi roli ilmiy-amaliy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda "Textile 4.0" konsepsiyasi, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari, ERP va SCM boshqaruv tizimlari, IoT, Big Data texnologiyalari, elektron savdo platformalari, xalqaro sertifikatlash talablari hamda milliy brend siyosatining tarmoq rivojiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, tekstil sanoatini raqamli transformatsiya qilish va eksport salohiyatini kengaytirish bo'yicha xorijiy tajribalar o'rganilib, ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari asoslab berilgan. Maqolada ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, R&D xarajatlarini oshirish, brend tanilganligini kuchaytirish va eksport geografiasini diversifikatsiya qilish borasidagi mavjud zaxiralar tahlil qilinib, tarmoqning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tekstil sanoati, raqamlashtirish, Textile 4.0, eksport raqobatbardoshligi, avtomatlashtirish, ERP, SCM, IoT, Big Data, xalqaro sertifikatlash, milliy brend, elektron savdo.

НАПРАВЛЕНИЯ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ПОВЫШЕНИЯ ЭКСПОРТНОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье в научно-практическом аспекте раскрыты сущность процессов цифровизации в текстильной промышленности Узбекистана, их основные направления, а также роль в повышении экспортной конкурентоспособности отрасли. В исследовании проанализировано влияние концепции «Textile 4.0», автоматизированных производственных линий, систем управления ERP и SCM, технологий IoT и



Big Data, электронных торговых платформ, требований международной сертификации, а также политики формирования национального бренда на развитие текстильной отрасли. Наряду с этим изучен зарубежный опыт цифровой трансформации текстильной промышленности и расширения экспортного потенциала, обоснованы возможности его применения в условиях Узбекистана. В статье также проанализированы имеющиеся резервы в сфере автоматизации производства, увеличения расходов на R&D, повышения узнаваемости бренда и диверсификации экспортной географии. На основе проведенного анализа разработаны практические предложения, направленные на повышение конкурентоспособности текстильной промышленности.

Ключевые слова: текстильная промышленность, цифровизация, Textile 4.0, экспортная конкурентоспособность, автоматизация, ERP, SCM, IoT, Big Data, международная сертификация, национальный бренд, электронная коммерция.

KIRISH. To'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida to'qimachilik sanoatining raqobatbardoshligi faqat arzon xomashyo yoki mehnat resurslari bilan belgilanmaydi. Bugungi global bozorda mahsulot sifati, yetkazib berish tezligi, ishlab chiqarishning moslashuvchanligi, ekologik standartlarga rioya qilish, raqamli kuzatuvchanlik va brend ishonchiligi asosiy raqobat omillariga aylanmoqda. Shu sababli tekstil sanoatini raqamlashtirish O'zbekiston uchun faqat texnologik yangilanish emas, balki eksport salohiyatini oshirish va global qiymat zanjirlariga yuqori bosqichlarda kirishning strategik sharti hisoblanadi.

O'zbekiston tekstil sanoati so'nggi yillarda sezilarli o'sish sur'atlarini kuzatilib, tarmoqda avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari ulushi 2021–2025-yillar davomida 38,4 foizdan 61,3 foizgacha oshgan, xalqaro sifat standartlari bo'yicha sertifikatlangan korxonalar ulushi esa 41,5 foizdan 68,7 foizgacha ko'tarilgan. Bu raqamlar tarmoqda modernizatsiya va raqamli transformatsiya jarayoni boshlanganini ko'rsatadi.

Biroq bu tarmoq bo'yicha xorij tajribasi o'rganilganda O'zbekiston tekstil sanoatida hali ishlatilmagan katta zaxiralar mavjud. Xitoy, Turkiya kabi avtomatlashtirish darajasi 70–80 foiz atrofida bo'lgan qator davlatlarda R&D xarajatlari tarmoq aylanmasining 2–3 foiziga yetadi. O'zbekiston tekstil sanoatida esa raqamli boshqaruv, dizayn, logistika, elektron savdo, sertifikatlash va xalqaro brendlar bilan hamkorlik yo'nalishlari tizimli rivojlantirilishi borasida qator muammolar mavjud.

Bugungi kunda jahon tekstil bozorida raqobat tobora kuchayib bormoqda. Eksportchi korxonalar nafaqat sifatli mahsulot ishlab chiqarishi, balki buyurtmalarni tez bajarishi, xarajatlarni kamaytirishi, mijozlar talabiga mos mahsulot taklif qilishi va xalqaro bozorlarda o'z brendini tanita olishi zarur. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-avgustdagi "Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-286-

son Qarorida milliy brendlar ro'yxatini shakllantirish va unga kiritilgan brend egalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari ishlab chiqilgan¹. Bundan tashqari, tekstil sanoatida raqamlashtirish jarayonlari faqat ishlab chiqarish bosqichi bilan cheklanib qolmasdan, raqamli texnologiyalarni buyurtmalarni boshqarish, xomashyo va tayyor mahsulot harakatini nazorat qilish, mijozlar talabini oldindan prognozlash, elektron savdo platformalarida faol ishtirok etishi, xalqaro sertifikatlash jarayonlarini tezlashtirish hamda raqamli marketingni rivojlantirishda ham keng qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda, O'zbekiston tekstil sanoatida eksport salohiyatini oshirish uchun raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish dolzarb masalalarga aylanmoqda. Tarmoqni raqamlashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish, sifat nazoratini kuchaytirish, yetkazib berish zanjirini shaffoflashtirish va tashqi bozorlarda raqobat ustunligini ta'minlashga imkon beradi. Ayniqsa, xalqaro bozorlarda sertifikatlash, brend tanilganligi, elektron savdo va mijozlar bilan tezkor aloqaning ahamiyati ortib borayotgan sharoitda tekstil korxonalarining raqamli transformatsiyasi tarmoq rivojining muhim omiliga aylanayotganligi mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar sharhi. Raqamli transformatsiya va sanoat raqobatbardoshligi o'rtasidagi bog'liqlik zamonaviy sanoat iqtisodiyoti, innovatsion menejment va global qiymat zanjirlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda keng yoritilgan. Xususan, M. Porterning raqobatbardoshlik nazariyasida mamlakat va tarmoqlar raqobat ustunligi firma strategiyasi, omil sharoitlari, talab sharoitlari, tegishli va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar hamda ichki raqobat muhiti bilan belgilanadi. Porterning "The Competitive Advantage of Nations" asarida ta'kidlanishicha, korxonalar raqobatbardoshligi faqat arzon resurslarga emas, balki innovatsion salohiyat, mahsulot sifati, talabchan iste'molchi bozori

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-avgustdagi "Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan

hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-286-son Qarori



va samarali ishlab chiqarish tizimlariga ham bog'liqdir². Shu nuqtai nazardan, tekstil sanoatida raqamlashtirish mehnat unumdorligini oshirish, mijozlar talabini tez aniqlash, yetkazib beruvchilar bilan integratsiyani kuchaytirish hamda sifatga asoslangan raqobat muhitini shakllantirish orqali Porter modelidagi barcha asosiy omillarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

"Industry 4.0" konsepsiyasi sanoat ishlab chiqarishini raqamli texnologiyalar asosida tubdan qayta tashkil etishni nazarda tutadi. H. Kagermann, W. Wahlster va J. Helbig tomonidan ishlab chiqilgan "Recommendations for Implementing the Strategic Initiative INDUSTRIE 4.0" nomli hisobotda sanoatning yangi bosqichi kiber-fizik tizimlar, aqlli ishlab chiqarish, real vaqt rejimidagi ma'lumotlar almashinuvi va ishlab chiqarish jarayonlarining tarmoqlashgan boshqaruv bilan izohlanadi³.

Lasi va boshqalar ham Industry 4.0 ni ishlab chiqarish tizimlarining moslashuvchanligi, avtomatlashtirilishi va raqamli integratsiyasi bilan bog'laydi⁴ [3]. Bu yondashuv tekstil sanoatiga tatbiq etilganda "Textile 4.0" mazmunini kasb etadi.

Textile 4.0 konsepsiyasi tikuv va to'quv jarayonlarida avtomatlashtirilgan liniyalar, raqamli dizayn, kompyuter ko'rish texnologiyalari orqali sifat nazorati, RFID yoki QR kod asosida mahsulot harakatini kuzatish, ERP/SCM tizimlari orqali ishlab chiqarish va ta'minot zanjirini boshqarish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. A. Nayak va R. Padhye tomonidan tayyorlangan "Automation in Garment Manufacturing" asarida tikuvchilik va tekstil ishlab chiqarishida avtomatlashtirish mehnat sig'imini kamaytirish, sifat barqarorligini ta'minlash va ishlab chiqarish vaqtini qisqartirishning muhim omili sifatida baholangan⁵

Zhong va boshqalar esa aqlli ishlab chiqarish sharoitida IoT, Big Data va bulutli texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida nazorat qilish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish va

chiqindilarni kamaytirishga xizmat qilishini asoslab bergan⁶.

Raqamli texnologiyalarning eksport raqobatbardoshligiga ta'siri, ayniqsa, global qiymat zanjiri konsepsiyasi orqali chuqurroq tushuntiriladi. G. Gereffi tomonidan ilgari surilgan global qiymat zanjiri yondashuviga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlar korxonalari xalqaro bozorlarda faqat xomashyo yoki yarim tayyor mahsulot eksporti bilan cheklanib qolmasdan, dizayn, brend yaratish, logistika, marketing va sotuvdan keyingi xizmatlar kabi yuqori qo'shilgan qiymatli bosqichlarga o'tishi zarur⁷.

Gereffi, Humphrey va Sturgeonning tadqiqotlarida global qiymat zanjirlarida korxonalarining yuqoriroq bosqichlarga ko'tarilishi texnologik yangilanish, boshqaruv tizimlari va xalqaro standartlarga moslashuv bilan bevosita bog'liq ekani ko'rsatilgan⁸. Demak, tekstil sanoatida raqamlashtirishni faqat ishlab chiqarishni avtomatlashtirish vositasi sifatida emas, balki eksport modeli va sanoat strategiyasini modernizatsiya qilish mexanizmi sifatida baholash lozim.

ERP va SCM tizimlari bo'yicha ilmiy adabiyotlarda raqamli boshqaruv korxonada resurslarni rejalashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirish, buyurtmalarni boshqarish va yetkazib berish zanjirining shaffofligini oshirish vositasi sifatida talqin qilinadi. T. Davenport ERP tizimlarini korxonada ichki bo'limlari o'rtasida yagona axborot makonini shakllantiruvchi muhim boshqaruv vositasi sifatida izohlaydi⁹.

Big Data va raqamli marketing texnologiyalari ham eksport raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Wamba va boshqalarning tadqiqotlarida Big Data tahlili korxonalarga bozor tendensiyalarini aniqlash, mijozlar xulq-atvorini prognozlash va boshqaruv qarorlarini dalillarga asoslangan holda qabul qilish imkonini berishi qayd etilgan¹⁰. Ayniqsa, tekstil va tayyor kiyim mahsulotlari

² Porter, M. E. *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press, 1990.

³ Kagermann, H., Wahlster, W., Helbig, J. *Recommendations for Implementing the Strategic Initiative INDUSTRIE 4.0. Final Report of the Industrie 4.0 Working Group*. Frankfurt: acatech, 2013.

⁴ Lasi, H., Fettke, P., Kemper, H. G., Feld, T., Hoffmann, M. *Industry 4.0. Business & Information Systems Engineering*, 2014, 6(4), pp. 239–242.

⁵ Nayak, R., Padhye, R. *Automation in Garment Manufacturing*. Cambridge: Woodhead Publishing, 2018.

⁶ Zhong, R. Y., Xu, X., Klotz, E., Newman, S. T. *Intelligent Manufacturing in the Context of Industry 4.0: A Review. Engineering*, 2017, 3(5), pp. 616–630

⁷ Gereffi, G. *International Trade and Industrial Upgrading in the Apparel Commodity Chain. Journal of International Economics*, 1999, 48(1), pp. 37–70.

⁸ Gereffi, G., Humphrey, J., Sturgeon, T. *The Governance of Global Value Chains. Review of International Political Economy*, 2005, 12(1), pp. 78–104.

⁹ Davenport, T. H. *Putting the Enterprise into the Enterprise System. Harvard Business Review*, 1998, 76(4), pp. 121–131.

¹⁰ Wamba, S. F., Akter, S., Edwards, A., Chopin, G., Gnanzou, D. *How "Big Data" Can Make Big Impact: Findings from a Systematic Review and a Longitudinal Case Study. International Journal of Production Economics*, 2015, 165, pp. 234–246.



bozorida moda tendensiyalari tez o'zgarib borayotgan sharoitda talabni prognozlash, elektron savdo platformalarida faol ishtirok etish va raqamli marketing vositalaridan foydalanish korxonalarining eksport bozorlaridagi mavqeini mustahkamlaydi.

O'zbekiston sharoitida tekstil sanoatini modernizatsiya qilish, chuqur qayta ishlash, klasterlashuv va eksportni kengaytirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-dekabrda PF-5285-son Farmonida to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va tarmoqqa zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish vazifalari belgilangan¹¹.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, indeksli baholash va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning axborot bazasida keltirilgan statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, tarmoq bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar hamda xorijiy tajribalar bo'yicha ilmiy manbalar tashkil etdi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston tekstil sanoatida raqamlashtirish jarayonlari bir necha yo'nalishda rivojlanmoqda. Bularga:

birinchi yo'nalish-ishlab chiqarish liniyalarini avtomatlashtirish. Bunda to'quv, bo'yash, tikuv va qadoqlash jarayonlarida zamonaviy uskunalar, kompyuterlashtirilgan boshqaruv va sifat nazorati tizimlari joriy etiladi;

ikkinchi yo'nalish-korxonalar boshqaruvini raqamlashtirish. ERP va SCM tizimlari yordamida xomashyo xaridi, ishlab chiqarish rejalashtirish, ombor, logistika va moliyaviy oqimlarni yagona platformada boshqarish mumkin;

uchinchi yo'nalish - raqamli eksport infratuzilmasi. Bu elektron savdo platformalari, xalqaro B2B portallar, raqamli kataloglar, onlayn ko'rgazmalar, mijozlar bilan CRM aloqalari va eksport shartnomalarini raqamli kuzatish tizimlarini o'z ichiga oladi;

to'rtinchi yo'nalish - sertifikatlash va sifatni raqamli boshqarish. Xalqaro bozorlarda xaridorlar mahsulotning kelib chiqishi, ekologik tozaligi, mehnat sharoitlari va sifat standartlari bo'yicha aniq ma'lumot talab qiladi. Raqamli traceability tizimlari bu talablarni bajarishga yordam beradi.

1-Jadval

O'zbekiston Tekstil Sanoatida Texnologik Rivojlanish Ko'rsatkichlari (2021–2025-Yillar)

Texnologik ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari ulushi,	38,4	43,7	49,2	54,8	61,3
zamonaviy uskunalar bilan ta'minlanganlik, %	52,1	57,4	62,8	68,5	73,9
texnologiyalarni yangilash uchun sarflar, mlrd. so'm	4 215	5 890	7 342	9 180	11 470
xalqaro sifat standartlari bo'yicha sertifikatlangan korxonalar, %	41,5	48,3	55,6	62,4	68,7

1-jadval ma'lumotlari O'zbekiston tekstil sanoatida texnologik yangilanish izchil davom etayotganini ko'rsatadi. Avtomatlashtirilgan liniyalar ulushi 2021-yildagi 38,4 foizdan 2025-yilda 61,3 foizga ko'tarilgan. Zamonaviy uskunalar bilan ta'minlanganlik 52,1 foizdan 73,9 foizgacha oshgan. Texnologiyalarni yangilashga sarflangan mablag'larning ko'payishi korxonalarda raqamli ishlab chiqarish infratuzilmasi shakllanayotganini anglatadi. Shu bilan birga, xalqaro sifat standartlari bo'yicha sertifikatlangan korxonalar ulushining 68,7 foizga yetishi eksport bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

2-jadval

Tekstil sanoatini raqamlashtirish yo'nalishlari va kutilayotgan natijalar

Innovatsion yo'nalish	Asosiy texnologiyalar va yondashuv	Kutilayotgan natija
-----------------------	------------------------------------	---------------------

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-dekabrda "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5285-son Farmoni.



Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish	Robotlashtirilgan to'quv va tikuv liniyalari, kompyuter ko'rish tizimlari, AI asosidagi sifat nazorati	Mahsulot sifati oshadi, mehnat xarajatlari kamayadi, chiqindi qisqaradi
Raqamli boshqaruv tizimlari	ERP/SCM platformalari, real vaqt monitoringi, ombor va yetkazib berishni boshqarish	Operatsion xarajatlar kamayadi, samaradorlik oshadi, qaror qabul qilish tezlashadi
IoT va Big Data	Dastgoh sensorlari, energiya sarfi monitoringi, talab prognozi, prediktiv texnik xizmat	Energiya iste'moli pasayadi, uskunalar to'xtashi qisqaradi, ishlab chiqarish rejasi aniqlashadi
Yashil tekstil texnologiyalari	Suv tejovchi bo'yash, organik paxta, GOTS va OCS sertifikatlari	Yevropa va AQSh ekobozorlariga chiqish imkoniyati kengayadi
Raqamli eksport va e-commerce	B2B platformalar, CRM, raqamli katalog, elektron shartnoma va onlayn ko'rgazmalar	Eksport geografiyasi kengayadi, xaridor bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa kuchayadi
Traceability tizimlari	QR/RFID, xomashyo kelib chiqishini kuzatish, raqamli sertifikatlar	Xalqaro brendlar ishonchi ortadi va sertifikatlash jarayoni soddalashadi

Raqamli texnologiyalarning eksport raqobatbardoshligiga ta'siri bir necha kanallar orqali yuzaga keladi. Birinchidan, avtomatlashtirish mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlaydi. Xalqaro xaridorlar uchun mahsulotning har bir partiyasida bir xil sifat standarti saqlanishi muhim. Ikkinchidan, raqamli boshqaruv yetkazib berish muddatlarini qisqartiradi va shartnomalarni o'z vaqtida bajarish imkoniyatini oshiradi. Uchinchidan, Big Data va CRM tizimlari mijoz talabini aniqroq tushunish, dizayn va assortimentni bozor talabiga moslashtirish imkonini beradi. To'rtinchidan, raqamli sertifikatlash va traceability tizimlari xalqaro brendlar bilan hamkorlik qilish uchun zarur. Bugungi kunda yirik brendlar mahsulot kelib chiqishi, ekologik tozaligi, majburiy mehnat yo'qligi va ishlab chiqarish sharoitlari bo'yicha shaffoflik talab qiladi. Agar korxonalar xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan jarayonni raqamli kuzata olsa, uning xalqaro bozorlardagi ishonchliligi oshadi. Beshinchidan, elektron savdo platformalari tekstil korxonalariga an'anaviy vositachilarga bog'liqlikni kamaytirish, yangi xaridorlar topish va eksport shartnomalarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Ayniqsa kichik va o'rta tekstil korxonalar uchun raqamli katalog, B2B platformalar va onlayn ko'rgazmalar arzon va samarali marketing instrumentlari hisoblanadi.

3-Jadval

O'zbekiston Tekstil Sanoatining Raqobatbardoshlik Ko'rsatkichlari Holati

Raqobatbardoshlik omili	Hozirgi holat	Xitoy	Turkiya	2030-yilgacha maqsad
Tayyor mahsulot ulushi eksportda, %	54,3	72	78	70–75
Avtomatlashtirish darajasi, %	61	78	70	82
Eksport bozorlarining soni, davlat	72	180	140	100
Milliy brend tanilganligi	Past	Juda yuqori	Yuqori	O'rta-yuqori
R&D xarajatlari tarmoq aylanmasida, %	0,8	2,5	2,0	2,5
Xalqaro sertifikatlangan korxonalar, %	63–69	90+	85+	85–88

3-jadvalda O'zbekiston tekstil sanoatining raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari holatining qiyosiy ma'lumotlari keltirilgan. O'zbekiston tekstil sanoatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar jadal sur'atlar bilan boshlangan bo'lsa-da, global raqobatchilar bilan solishtirganda avtomatlashtirish, eksport bozorlari soni, milliy brend tanilganligi va R&D xarajatlari bo'yicha tafovutlar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. 2030-yilgacha tayyor mahsulot ulushini 70–75 foizga,



avtomatlashtirish darajasini 82 foizga, eksport bozorlarini 100 ta davlatga yetkazish raqamli transformatsiya va eksport diversifikatsiyasini uyg'un amalga oshirishni talab etadi.

4-jadval

2025–2030-yillarga mo'ljallangan raqamlashtirish yo'l xaritasi

Yo'nalish	2025–2026	2027–2028	2029–2030
Avtomatlashtirilgan liniyalar ulushi, %	61 → 68	68 → 75	75 → 85
ERP/SCM bilan qoplangan korxonalar ulushi, %	30 → 45	45 → 65	65 → 80
Xalqaro standart bo'yicha sertifikatlangan korxonalar ulushi, %	63 → 70	70 → 78	78 → 88
R&D xarajatlarining sanoat ulushi, %	0,8 → 1,2	1,2 → 1,8	1,8 → 2,5
Elektron eksport platformalarida ishtiroki	B2B kataloglar va pilot loyihalar	Milliy raqamli eksport platformasi	Yagona eksport-traceability ekotizimi
Yashil va raqamli sertifikatlash	GOTS, OEKO-TEX bo'yicha subsidiya	BCI va Better Work qamrovini kengaytirish	Global brendlar bilan to'liq integratsiya

Yo'l xaritasi bosqichma-bosqich yondashuvga asoslanishi lozim. 2025–2026-yillarda korxonalarni raqamli auditdan o'tkazish, eng yirik eksportchi korxonalarda ERP/SCM pilot loyihalarini amalga oshirish, sertifikatlash xarajatlarini qisman subsidiya qilish va raqamli eksport kataloglarini yaratish maqsadga muvofiq. 2027–2028-yillarda ushbu tajribani o'rta korxonalarga kengaytirish, IoT va Big Data monitoring tizimlarini joriy etish, logistika markazlarini raqamli boshqaruvga o'tkazish zarur.

2029–2030-yillarda esa yagona raqamli eksport ekotizimi shakllanishi kerak. Unda xomashyo kelib chiqishi, ishlab chiqarish jarayoni, sertifikatlash, logistika, bojxona rasmiylashtiruvi va xaridor bilan aloqa yagona raqamli maydonda birlashtiriladi. Bunday tizim O'zbekiston tekstil mahsulotlarini xalqaro brendlar va yirik distribyutorlar uchun ishonchli hamkor sifatida namoyon etadi.

Eksport raqobatbardoshligini oshirishda milliy brend siyosati alohida o'rin tutadi. "O'zbekiston ramzi" sifat belgisini yuqori sifat, organik paxta, ekologik toza ishlab chiqarish va milliy dizayn bilan bog'lash zarur. Bunday pozitsionlash milliy mahsulotlarni faqat past narx orqali emas, balki sifat va ishonch orqali raqobatlashtirish imkonini beradi. Raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn ko'rgazmalar va B2B platformalar orqali milliy brend xalqaro bozorda tanitilishi lozim.

Raqamlashtirish jarayonida ayrim xavflar ham mavjud. Uskunalar va dasturiy ta'minot importiga bog'liqlik, kadrlar yetishmasligi, kichik korxonalar uchun yuqori investitsiya xarajatlari, kiberxavfsizlik va ma'lumotlar himoyasi masalalari puxta boshqarilishi

kerak. Shu sababli raqamli transformatsiya faqat texnika xaridi emas, balki kadrlar, moliya, standart, boshqaruv va xavfsizlik mexanizmlarini birgalikda qamrab olgan kompleks dastur bo'lishi kerak.

Xitoy tekstil sanoatida raqamlashtirish keng ko'lamlil sanoat siyosati, maxsus iqtisodiy zonalar, robotlashtirilgan ishlab chiqarish va elektron eksport platformalari bilan uyg'un amalga oshirilmoqda. Xitoy tajribasining O'zbekiston uchun asosiy sabog'i shundaki, raqamlashtirish korxonada darajasidagi alohida loyiha emas, balki butun tarmoq ekotizimini qamrab olgan sanoat strategiyasi bo'lishi kerak.

Turkiya tajribasi raqamlashtirish, dizayn va brend siyosatining integratsiyasi eksport qiymatini oshirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Turkiya korxonalari tezkor buyurtma bajarish, moslashuvchan ishlab chiqarish va brend tanilganligi orqali Yevropa bozorida yuqori mavqega ega. O'zbekiston uchun bu tajriba raqamli dizayn markazlari, moda inkubatorlari va milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini bildiradi.

Germaniya va Yevropa Ittifoqi tajribasi sifat, ekologik standartlar, traceability va barqaror ishlab chiqarish tamoyillari eksport raqobatbardoshligining ajralmas qismi ekanini ko'rsatadi. O'zbekiston tekstil sanoati Yevropa bozorida mustahkam o'rin egallashi uchun OEKO-TEX, GOTS, ISO 14001, Better Cotton va boshqa standartlar bo'yicha sertifikatlash qamrovini kengaytirishi lozim.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tekstil sanoatida raqamlashtirish jarayonlari ijobiy dinamikaga ega. Avtomatlashtirilgan liniyalar ulushining 38,4 foizdan



61,3 foizga, xalqaro sifat standartlari bo'yicha sertifikatlangan korxonalar ulushining 41,5 foizdan 68,7 foizga oshishi tarmoqda texnologik yangilanish boshlanganini tasdiqlaydi. Biroq global raqobat sharoitida bu ko'rsatkichlarni yanada yuqori darajaga olib chiqish zarur.

Raqamlashtirish eksport raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. U mahsulot sifatini barqarorlashtiradi, tannarxni pasaytiradi, yetkazib berish muddatlarini qisqartiradi, sertifikatlash va traceability talablarini bajarishga yordam beradi, elektron savdo orqali yangi xaridorlar topish imkoniyatini kengaytiradi. Shu sababli tekstil sanoatida raqamli transformatsiya eksport siyosatining asosiy tarkibiy qismi sifatida tekstil korxonalarida raqamli tayyorgarlik auditini, ERP va SCM tizimlarini joriy etish xarajatlarini subsidiya qilish, "O'zbekiston tekstil mahsulotlari raqamli eksport platformasi"ni tashkil etish, xalqaro sertifikatlash xarajatlarini qisman subsidiya qilish, raqamli dizayn va moda inkubatorlarini tashkil etish, logistika jarayonlarini raqamlashtirish va traceability tizimlarini joriy etish orqali O'zbekiston tekstil sanoatida raqamlashtirish va eksport raqobatbardoshligini oshirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. – <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-fevraldagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4186-son Qarori. – <https://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvardagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6-son Farmoni. – <https://lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 12-yanvardagi "Mahalliy yengil sanoat korxonalarining xalqaro yetkazib berish zanjirlarida ishtirokini kengaytirish hamda tashqi bozorlarda o'rnini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4-son Farmoni. – <https://lex.uz>
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Sanoat va eksport ko'rsatkichlari bo'yicha statistik to'plam. – Toshkent, 2024.
6. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi materiallari. – Toshkent, 2024.
7. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
8. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva: World Economic Forum, 2016.
9. Kagermann H., Wahlster W., Helbig J. Recommendations for Implementing the Strategic Initiative Industrie 4.0. – Acatech, 2013.
10. Gereffi G. Global Value Chains in a Post-Washington Consensus World // Review of International Political Economy. – 2014. – Vol. 21, № 1. – Pp. 9–37.
11. OECD. Digital Transformation in Business and Industry: Policy Frameworks and Practice. – Paris: OECD Publishing, 2021.
12. UNIDO. Industrial Development Report 2020: Industrializing in the Digital Age. – Vienna: UNIDO, 2020.
13. ILO and IFC. Better Work Programme: Annual Report. – Geneva, 2023.
14. Rizayeva S.B. O'zbekistonda tekstil sanoatini rivojlantirish yo'llari. Magistrlik dissertatsiyasi. – Toshkent: TDIU, 2025.
15. Asatullayeva Sh.M. O'zbekiston tikuv-trikotaj sanoatining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2024.